



ILM-FAN VA TA'LIMDAGI INNOVATSION RIVOJLANISHNING ZAMONAVIY TRENDLARI



MAXMUDOV LAZIZBEK,
*Samarqand davlat tibbiyot
universiteti, pediatriya
fakulteti talabasi*



DJAMALDINOVA SH.O.
*Ilmiy rahbar: SamDTU, O'zbek
tili va adabiyoti rus tili bilan
kafedrası mudiri, p.f.f.d. PhD*

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp335-336>

Annotatsiya: Hozirgi global dunyoda ilm-fan tezlik bilan kurtak ochib rivojlanib bormoqda. Ta'lim sohasining yangidan yangi zamonaviy qurilmalar-u, tesha tegib ulgurmagan yangi o'quv dasturlari, innovatsion g'oyalar bilan boyitilishi va hokazolarni misol keltirishimiz mumkin. Xo'sh, bunga sabab nima?

1. O'sib ulg'ayib kelayotgan yangi avlodga berilayotgan ta'lim sifatini yaxshilash.
2. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun zamonaviy, yangi texnik qurilmalarga ehtiyoj oshishi.
3. Ilm-fan bilan uzviy yoki bilvosita bog'liqligi uzoqqa bormaydigan sanoat sohaslarida raqobat oshishi.

Xususan, birinchi bandga to'xtaladigan bo'lsak, o'sib kelayotgan avlodning ilmiy salohiyatini boyitishda zamonaviy usullar yoki bo'lmasa eski dasturlarni yanada takomillashtirish (yoki soddalashtirish)ga nima turtki bo'lmoqda? Bunga, asosan, ikki xil yo'nalishda javob berish mumkin. Yangi avlodning shunchalik tezlik bilan aqliy salohiyati rivojlanib bormoqdaki, hozirgi o'quv dasturlari, ilmiy ishlanmalar, o'qitish metodlari ularga yetarli bo'lmayapti. Shu sababli eski o'quv ishlanmalariga o'zgartirish kiritib emas, balki zamonaviy, yangidan yangi ishlanmalar bilan almashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ba'zi fanlar yoki darsliklarning o'zi shu darajada bitta qolipda qolib ketganki, o'quvchi uni o'qib juda tor (qisqa va lo'nda) fikrlarga ega bo'lishi yetarli emas. Bu jarayonlarning mahsuldorligini oshirish uchun ushbu mavzu borasida butun jahon bo'yicha emas, hech bo'lmasa dunyoning yetakchi mamlakatlaridan 4 yoki 5 tasini ta'lim sohasidagi yangiliklardan boxabar qilish mumkin. Yoki bo'lmasa o'sha mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalar, videoroliklar bilan boyitish o'quv ishlarini, ta'lim sohasini faqat oldinga yetaklaydi.

Raqobat va rivojlanish bo'lgan joyda, albatta, kamchiliklar topiladi. Shu asnoda esda saqlash kerakki, talabaning salohiyatini o'ldirib qo'yadigan darajada ta'lim sohasini soddalashtirib qo'ymaslik kerak. Xususan, "Mental arifmetika" o'quvchi tez-

lik bilan matematik hisob-kitoblarni amalga oshirishga yordam beradi. Lekin shuni inobatga olish kerakki matematik amallar (bo'lish, ko'paytirish, ayirish, qo'shish)dan kam foydalanishga o'rgatib qo'yadi. Bu fikr, albatta, mental arifmetikadan foydalanmaslik kerak degani emas, shunchaki o'z o'rnida foydalanishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Obloberdievna, D.S., & Seydalievna B.E. (2021). Avicenna's contribution to world medicine. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 238-241.
2. Obloberdievna D.S., Nematjonovna M.S. Research approaches to improving the educational system // *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*. – 2022. – T. 2. – №. 3. – С. 225-229.
3. Obloberdiyevna D.S., & Tuychiyevna R.L. (2022). Distance Learning in the System of Higher Education. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(4), 53-59.
4. Obloberdiyevna D.S., Odilkhonovna K.U. Virtual learning as the only safe learning option during a pandemic // *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*. – 2022. – T. 2. – №. 3. – С. 117-121.
5. Разыкова Л.Т., & Джамалдинова Ш.О. (2022). Содействие творчеству и инновациям в системе образования. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 2(8), 70-77.
6. Разыкова Л.Т. (2022). Этический климат организации или (неэтичное поведение на рабочем месте). *Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali*, 2(8), 54-58.
7. Джамалдинова Ш.О. Этика в образовательной системе // *Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali*. – 2022. – T. 2. – №. 8. – С. 50-53.
8. Хусанбаева К., Джамалдинова Ш. The agony of longing // *in Library*. – 2020. – T. 20. – №. 2. – С. 2004-2008.
9. Джамалдинова Ш., & Кучкарова О. (2020). Роль социальных медиа в формировании эмоционального развития молодёжи. *InterConf*.
10. Obloberdiyevna D.S., & Odilkhonovna K.U. (2022). Teaching languages using modern educational methods. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(3), 105-111.
11. Obloberdiyevna D.S., & Yuldashevna X.G. (2022). Problem-based study of literary works in the science of methodology. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 205-213.